

INTERNATIONAL JOURNAL OF  
**WORLD LANGUAGES**

ДОБРЕДОЉОВТЕ WÈLLKOMM स्वागत छ  
VÄLKOMMEN FÀILTE VÍTEJTE HERZLICH KΑΛΩΣ ΗΡΘΑΤΕ  
Laipni lūdzam ك ب ال ه أ WILLKOMMEN  
BEM VINDA ÜDVÖZÖLJÜK 歡迎 환영  
आपले स्वागत आहे 歡迎 ようこそ  
WELCOME DOBRODOŠLI स्वागत हे  
BIENVENUE HOŞGELDİNİZ FÀILTE  
BENVENUTO VELKOMINN Tuhiŋga o mua SELAMAT DATANG  
wɪlujeung sumping  
SALUTATIO வரவரேற்பா BI XÊR HATĪ  
BINE ATI VENIT ಸೆವಾಗತೆ

---

# International Journal of World Languages

Volume 1, Issue 1, March 2021

**Internet address:** <http://ejournals.id/index.php/IJWL/issue/archive>

**E-mail:** [info@ejournals.id](mailto:info@ejournals.id)

Published by ejournals PVT LTD

Issued Bimonthly

## *Requirements for the authors.*

*The manuscript authors must provide reliable results of the work done, as well as an objective judgment on the significance of the study. The data underlying the work should be presented accurately, without errors. The work should contain enough details and bibliographic references for possible reproduction. False or knowingly erroneous statements are perceived as unethical behavior and unacceptable.*

*Authors should make sure that the original work is submitted and, if other authors' works or claims are used, provide appropriate bibliographic references or citations. Plagiarism can exist in many forms - from representing someone else's work as copyright to copying or paraphrasing significant parts of another's work without attribution, as well as claiming one's rights to the results of another's research. Plagiarism in all forms constitutes unethical acts and is unacceptable. Responsibility for plagiarism is entirely on the shoulders of the authors.*

*Significant errors in published works. If the author detects significant errors or inaccuracies in the publication, the author must inform the editor of the journal or the publisher about this and interact with them in order to remove the publication as soon as possible or correct errors. If the editor or publisher has received information from a third party that the publication contains significant errors, the author must withdraw the work or correct the errors as soon as possible.*

## OPEN ACCESS

Copyright © 2021 by Thematics Journals of Applied Sciences

# EDITORIAL BOARD

**Ambreen Safdar Kharbe,**  
Najran University,, Saudi Arabia

**Erdem Akbaş,**  
Erciyes University, Turkey

**Oksana Chaika,**  
National University of Life and Environmental  
Sciences of Ukraine, Ukraine

**Fatma Kalpakli,**  
Selçuk University, Turkey

**Zekai Gül,**  
University of Minnesota, Islamic College of  
Languages and Translation

**Birsen Tütüniş,**  
Kültür University, Turkey

**Nurdan Kavakli,**  
Izmir Democracy University, Turkey

**Anette Ipsen,**  
University College Copenhagen, Denmark

**Lotte Lindberg,**  
University College Copenhagen, Denmark

**Miriam Eisenstein,**  
New York University, United States

**Boudjemaa Dendenne,**  
University of Constantine I, Algeria

**Ismail Hakki Mirici,**  
Hacettepe University, Turkey

**Lily Orland Barak,**  
University of Haifa, Israel

**Maggie Sokolik,**  
University of California, Berkeley, United States

**Manana Rusieshvili-Cartledge,**  
Tbilisi State University, Georgia

**Maryam Zeinali,**  
Urmia University, Iran Islamic Republic

**Mehmet Demirezen,**  
Ufuk University, Turkey

**Sejdi M. Gashi,**  
Institute of Albanology-Pristina(Kosovo), Albania

**Priti Chopra,**  
The University of Greenwich, Greece

**Rome Aboh,**  
University of Uyo, Nigeria

**Salam Yusuf Nuhu Inuwa,**  
Kano State College of Arts and Sciences, Nigeria

**Zelege Arficho Ayele,**  
Hawassa University, Ethiopia

**Mustafo Zhabborovich Bozorov**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Martaba Numonovna Melikova**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Mastura Mizrobovna Oblokulova**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Erkinov Sukhrob Erkinovich**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Eko Susanto**  
Menegment of journal Indonesia

**Shirinova Inobat Anvarovna**  
Guliston State University

**Akramjon Abdikhakimovich Shermatov**  
Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Akhmedova Shoira Nematovna**  
Professor of the Department of Uzbek Literature,  
Bukhara State University

**НАЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИИ И СЕМАНТИКИ СЛОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ОСОБЕННОСТИ**

**Азатова Нодира Анварбековна**

Ургенчский государственный университет  
Студентка факультета иностранной филологии  
E-mail: nodira\_azatova@mail.ru

*Аннотация: В статье рассматривается национальная фразеология английского и узбекского языков и семантические особенности фраз, а также анализируются взгляды мировых и узбекских лингвистов на этот счет. Он также предоставляет информацию о происхождении термина фразеология, а также об ученых, которые внесли свой вклад в его использование. В статье проводится исследование по теме, в процессе которого теоретические данные интерпретируются на основе фактического материала.*

*Ключевые слова: семантический признак, фразеологизм, лексические ассоциации, лексикализованные соединения, функционально-семантическая целостность.*

**SEMANTIK FEATURES OF NATIONAL PHRASEOLOGISM AND PHRASES IN ENGLISH AND UZBEK**

**Azatova Nodira Anvarbek kizi**

Urgench State University  
Student of the Faculty of Foreign Philology  
E-mail: nodira\_azatova@mail.ru

*Abstract. This article discusses the national phraseology of English and Uzbek languages and the semantic features of phrases, and analyzes the views of world and Uzbek linguists in this regard. It also provides information on the origins of the term phraseology, as well as the scholars who contributed to its implementation. The article conducts research on the topic, in the process of which the theoretical data are interpreted on the basis of factual material.*

*Key words: semantic feature, phraseological unit, lexical associations, lexicalized connections, functional and semantic integrity.*

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY XUSUSIYATGA EGA FRAZELOGIZM HAMDA SO'Z BIRIKMALARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

**Azatova Nodira Anvarbek qizi**

Urganch davlat universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi  
E-mail: nodira\_azatova@mail.ru

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi milliy xususiyatga ega frazeologizm hamda so'z birikmalarining semantik xususiyatlari haqida so'z yuritilib, unda jahon va o'zbek tilshunoslarining bu boradagi fikrlari tahlil qilinadi. Hamda frazeologizm atamasining kelib chiqish tarixi shu bilan birga uning amalga tatbiq qilishda hissa qo'shgan olimlar ham sanalib o'tiladi. Maqolada mavzu yuzasidan tadqiqot olib borilib, ushbu jarayonda nazariy ma'lumotlar faktik materiallar asosida izohlab berilgan.*

*Kalit so'zlar: semantik xususiyat, frazeologik birlik, leksik birlashmalar, leksikalizatsiyalashgan birikmalar, funksional-semantik butunlik.*

Frazeologiya bo'yicha dastlabki umumnazariy, fundamental ilmiy asarlar Sh.Balli va V.V.Vinogradovlar tomonidan yuzaga keldi. Ammo to 40-50 yillargacha na rus tilshunosligida va na turkiyshunoslikda frazeologizmlar keng planda o'rganilmagan. 40-50 yillardan keyin esa frazeologizmlarning tadqiqiga sezilarli darajada rus tilshunoslaridan: V.L.Arangeliskiy, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.P.Jukov, V.M.Mokienko, V.N.Teliya kabilar, turkiyshunoslardan esa S.Kesenbaev, Sh.Rahmatullayev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo'ldashev kabi tilshunoslarning ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlari ta'sir ko'rsatdi. Ular o'z tadqiqotlarida frazeologizmlarning leksik-grammatik, leksik-semantik tabiati va stilistik xususiyatlarini, ularning paydo bo'lish manbalari va shakllanish xususiyatlari, frazeologik ma'noning o'ziga xos xususiyatlarini, frazeologizmlarning shakl va ma'no turlariga ko'ra turlari, frazeologizmlarning grammatik tabiati va uslubiy xususiyatlarini atroflicha ochib bergan bo'lsalar, V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, L.I.Royzenzon, V.L.Arangeliskiy, A.G.Nazaryan va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlari frazeologiyada yangi ilmiy tekshirish sohasiga, ya'ni frazeologik shakllanish masalalariga bag'ishlangan. O'zbek tilshunosligida bu masalaning dastlabki tadqiqotchisi sifatida A.Mamatovning ilmiy tadqiqotini misol qilish mumkin.

Umumjahon tilshunosligida frazeologiyaning umumiy masalalari dastlab Sh.Balli tomonidan bir qadar o'rganib chiqildi. U o'z asarlaridan birida shunday degan edi: "Frazeologiya - bu tilshunoslikning vositachilik sohasi bo'lib uni lug'atshunoslikka va sintaksisga yaqin deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, frazeologik hodisalarning ekspressiv xususiyatini hisobga olgan holda, ular uslubiy jihatdan ham bog'liqdir" [1]. Lekin uning turli xil tilshunoslik sohalari bilan bog'liqligi sababli, bugungi kunda frazeologiya o'z tekshirish obyektiga, tadqiq etish yo'li va usullariga ega bo'lgan fan sifatida shakllandi.

Sh. Balli o'zining "Stilistikadan ocherklar", "Fransuz tili stilistikasi" kabi asarlarida so'z birikmalarini sistemalashtirib, ularning leksik-grammatik xususiyatlari, anglatgan ma'nolari va sintaktik o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlitligicha qo'llanadigan birliklar ekanligini isbotlashga harakat qildi. Sh. Balli semantika frazeologizmlarning mutloq belgisi ekanligini asoslab, quyidagi fikrni ham bildiradi: "Tashqi belgi ichki belgiga nisbatan ahamiyatli va keng qimmatlidir". [1]. Semantik xususiyat Sh. Balli asarlarida mutloq bosh belgi sifatida qaralishi, tarixiy-semantik asoslarning inkor etilishi kabi munozaralarga sabab bo'ldi. Ammo, bu qarashlar frazeologiya masalalarini yanada kengroq tadqiq etish, o'rganish va uning alohida fan sifatida shakllanishiga ta'sirini o'tkazdi. Sh.Balling frazeologik tadqiqotlaridan so'ng ancha vaqt o'tgandan so'ng frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida shakllana boshladi va uning turli qirralariga bag'ishlangan frazeologik lug'atlar, ilmiy maqolalar, dissertatsion ishlar, monografik kuzatishlar yuzaga keldi. Frazeologiya hozirgi kunda tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, fonetika va fonologiya bo'limlari kabi o'z tekshirish metodiga va o'rganish obyektiga ega bo'lgan alohida sohaga aylandi.

Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gaplar tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilishdan oldin ba'zi asosiy nuqtayi nazarlar, ya'ni terminologiya va ta'riflarga murojaat etish lozimdir. Asosan, frazeologik birlik nima va uning eng to'g'ri va aniq ta'rifi qanday kabi qarashlarga to'xtalamiz. Frazalar va idiomalar tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologik birliklarni belgilash uchun qo'llaniladigan va eng ko'p uchraydigan terminlardir.



Ba'zan bu ikkala terminlar o'rtasida hatto aniq bir farq bo'lmaydi va ikkala terminlar ham amaliy jihatdan teng ma'no beradi. Frazeologiya bilan shug'illanuvchi adabiyotlarda har xil terminlar, jumladan, Idiom (idioma) (Cowie et al, 1983), phraseme (fazema) (Mel'cuk et al. 1995) yoki word-group (so'z guruhi) (Glaser, 1998) kabi terminlar xuddi shu kategoriyani ifodalash uchun ishlatiladi. Ularning har biri turli xil mezonlar asosida ta'riflangan va shu sababdan har bir termin frazeologiyani keng va tor ma'noda tushunishga sababchi bo'ladi.

O'zbek tili kontekstlarida esa hozirgi kunda frazeologizmlar frazeologik chatishma (ibora), frazeologik birlik, frazeologik birikma kabi atamaları bilan yuritiladi. Turkiyshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida frazeologiya sistem ravishda hanuzgacha to'la o'rganib chiqilgan deya olmaymiz. Frazeologizmlarning o'rganilish tarixiga e'tibor berilsa, ular ayrim tilshunoslar tomonidan leksik so'z birikmalar yoki leksik birlashmalar tarzida, sintaksisning o'rganish obyektiga kiritilganligini, boshqalari tomonidan esa ular leksikalizatsiyalashgan birikmalar tarzida atalib, tilshunoslikning mustaqil o'rganish objekti bo'lishi kerakligi uqtilganligini ko'rish mumkin. [2].

Frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bir nechta belgilar yig'indisidan iborat va tilshunoslikda frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqlashda ishlatiladigan belgilarni aniqlashda turli xil qarashlar mavjud. Bu belgilardan eng yetakchisini aniqlashda ham turli xil fikrlar yuritilgan. Masalan, A.I.Smirnitskiy frazeologik xususiyatning eng muhim belgisi "so'zga muqobillik", N.N.Amosova "muqim kontekst"li bo'lishi kerakligini, S.G.Gavrin asosiy mezon "funktional-semantik butunlik" bo'lishi kerakligini aytadi. A.V.Kunin esa frazeologiyani keng ma'noda tushunib, uning obyektiga "murakkab ma'noli" barcha turg'un birikmalarni kiritadi. A.V. Kunin frazeologiyaning pastki chegarasiga ikki komponentli shaklni, yuqori chegarasiga esa qo'shma gap tarkibli birikmalarni kiritadi. Shunga ko'ra qo'shma gap tarkibli frazeologizmlar faqat maqollar bo'la oladi. Shu ma'noda maqollarni ham frazeologiya obyektiga kiritadi. [3]

Frazeologiya obyektini keng ma'noda tushunuvchi turkiyshunos tilshunos S.K.Ksenbayev barcha turg'un birikmalarni frazeologiyaga kiritadi va turg'unlik hamda yaxlit holda mavjudlik belgilari ularni birlashtiruvchi umumiy xususiyatdir, deb ta'kidlaydi. Ammo tilshunos A.Mamatovning fikricha turg'unlik va tayyor holda mavjudlik faqatgina frazeologizmlarga emas, balki barcha turg'un birikmalarga ham xos xususiyatdir. Shu bilan birga, qayd etilgan belgilar frazeologizmlar uchun bosh farqlovchi belgi ham bo'la olmaydi. [4]

Bizning fikrimizcha, turg'un bog'lamalar tilda tayyor holda yaxlit mavjud bo'lishini hisobga olgan holda, barcha turg'un birliklarni frazeologiya sirasiga kiritish mumkin emas.

S.N.Muratovning fikricha, frazeologizmlar turg'un so'z birikmalarining bir tipidir. [5] U semantik yaxlitlik, obrazlilik va ko'chma ma'nolanish frazeologizmlarning erkin bog'lamalardan farqlovchi belgilaridir, deb ko'rsatadi. Ammo bu fikni to'ldirgan tarzda, faqat shu belgilar frazeologizmlarning farqlovchi belgilari bo'la olmaydi, balki belgilar yig'indisidan iborat bo'ladi, deb ta'kidlaydi A.Mamatov o'z ilmiy ishida.

Turkiyshunoslikda va barcha tilshunoslikda bo'lgani kabi Yevropa tilshunosligida ham frazeologiyani tor ma'noda tushunuvchilar mavjud. Boshqird tilshunosi Z.G. Uraksinning asarlarida frazeologiya obyektini tor tushunish g'oyasi ilgari surilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Olim "Boshqird tili frazeologiyasi" monografiyasida tayyor holda mavjud, takror qo'llanuvchi, a'zolari orasida o'zaro bog'lanishi turg'un va yaxlit ma'noli frazeologizmlarni tahlil qilib, frazeologizmlarni turg'un birikmalarning bir qismi, deb hisoblaydi vaboshqatidagi turg'un birikmalardan obrazlilik bilan farqlanishini ko'rsatadi. Chunonchi muallif "frazeologizmlarda obrazli ma'no global xususiyatga ega", - deb ta'kidlaydi. [6].

Shuningdek, frazeologik doirani tor ma'noda tushunuvchi olimlar qatoriga ozarbayjon tilshunosi G.A.Bayramov, tatar tilshunoslari L.K.Bayramova, F.A.G'aniyev, chuvash

tilshunosi M.F.Chernovlarni kiritish mumkin.

1979 - yilda R.Ginzburg va uning hamkasblari frazeologik birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "Frazeologik birliklar nutqda erkin shakllanmaydigan, mustaqil so'z guruhlaridir, ammo ular tayyor birliklar sifatida shakllanishi mumkin".

O'z navbatida Glaser frazeologik birliklarni quyidagicha ta'riflaydi:

"Sintaktik va semantik barqarorlikka ega bo'lgan umumiy foydalanishda leksiklashtirilgan, takrorlanadigan bileksemik yoki polileksemik so'z turkumi idiomatizatsiyalangan bo'lishi mumkin. Hamda iboraviy va matnda ta'kidlash yoki kuchaytiruvchi funksiyaga ega bo'lishi mumkin". [2]

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Балли Ш. Французская стилистика / Ш. Балли. - М. : Иностранная литература, 1909.
2. Glaser R. The stylistic potential of phraseological units. - Oxford: Clarendon Press, 1998.
3. Кунин А.В. Английская фразеология. - М.: Высшая школа, 1970.
4. А.Маматов. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari. - Toshkent, 1996.
5. S.N.Muratov. Turkiy tillarda turg'un so'z birikmalari. - Toshkent, 1961.
6. З.Г. Ураксин. Фразеология башкирского языка. - Москва, 1975.
7. А.Е.Маматов. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. - Toshkent, 1997.